



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
Xolmatova Dilshoda Sherali qizi	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna	



Madaminova Gulzira Gulamkadirovna
Andijon davlat pedagogika instituti
“Amaliy xorijiy tillar” kafedrası dotsenti
(PhD)

“KITOBXONLAR KLUBI” MODELINING INGLIZ TILI TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARNING KOGNITIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili darsidan tashqari faoliyatiga integratsiyalashuvi va bu orqali 7-9-sinf o‘quvchilarining kognitiv kompetensiyasi rivojlantirilishi ilmiy asoslanadi. Tadqiqot Bloom taksonomiyasining olti bosqichi (bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish) asosida “Kitobxonlar klub” muhitining kognitiv ta‘sirini tahlil qiladi. Shuningdek, metakognitsiya, proksimal rivojlanish zonasi (ZPD), scaffolding va kognitiv yuk nazariyalari nuqtai nazaridan “Kitobxonlar klubi” modelining samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Aralash metodologiya (miqdoriy va sifat) asosida tadqiqot natijalariga ko‘ra, guruh muhokamalarida ishtirokchilar yakka tartibda o‘qishga qaraganda ko‘proq kognitiv darajalarda faol bo‘lishlari, tanqidiy fikrlash va metakognitiv ko‘nikmalar sezilarli darajada yaxshilanishi aniqlangan. Tadqiqot natijalari “Kitobxonlar Klubi” modelini ingliz tili ta‘limiga joriy etishning pedagogik asoslarini mustahkamlaydi.

Kalit so‘zlar: kitobxonlar klubi, kognitiv kompetensiya, Bloom taksonomiyasi, metakognitsiya, scaffolding, ZPD, tanqidiy fikrlash, ingliz tili ta‘limi.

Abstract: This article scientifically substantiates the integration of the “Readers’ Club” model into extracurricular English language activities and its role in developing the cognitive competence of 7th-9th-grade students. The study analyzes the cognitive impact of the Readers’ Club environment based on the six levels of Bloom’s taxonomy (remembering, understanding, applying, analyzing, evaluating, and creating). The effectiveness of the Readers’ Club model is also examined through the frameworks of metacognition, the Zone of Proximal Development (ZPD), scaffolding, and cognitive load theory. Using a mixed-methods approach, the findings indicate that participants in group discussions engage at higher cognitive levels than in individual reading, with significant improvements observed in critical thinking and metacognitive skills. The results reinforce the pedagogical foundations for implementing the Readers’ Club model in English language instruction.

Key words: readers’ club, cognitive competence, Bloom’s taxonomy, metacognition, scaffolding, ZPD, critical thinking, English language teaching.

Аннотация: В данной статье научно обосновывается интеграция модели “Клуб читателей” во внеурочную деятельность по английскому языку, а также её роль в развитии когнитивной компетенции учащихся 7-9-х классов. В исследовании анализируется когнитивное воздействие среды “Клуба читателей” на основе шести уровней таксономии Блума: знание, понимание, применение, анализ, оценка и создание. Кроме того, эффективность модели “Клуб читателей” рассматривается с позиций метакогниции, зоны ближайшего развития (ZPD), скаффолдинга и теории когнитивной нагрузки. Результаты исследования, проведённого на основе смешанной методологии, включающей количественные и качественные методы, показывают, что участники групповых обсуждений проявляют активность на более высоких когнитивных уровнях по сравнению с индивидуальным чтением, а также демонстрируют заметное развитие критического мышления и метакогнитивных навыков. Полученные результаты укрепляют педагогические основания внедрения модели “Клуб читателей” в процесс обучения английскому языку.

Ключевые слова: клуб читателей, когнитивная компетенция, таксономия Блума, метакогниция, скаффолдинг, зона ближайшего развития, критическое мышление, обучение английскому языку.



KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ingliz tili ta'limida darsdan tashqari faoliyat orqali chuqur kognitiv ko'nikmalarni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. "Kitobxonlar klubi" modeli ushbu ehtiyojga ijodiy va ilmiy asoslangan pedagogik yondashuv sifatida ahamiyatlidir.

Tadqiqotlarda "Kitobxonlar klubi" formatining o'quvchilar orasida o'qishga qiziqishni oshirishda, matn tushunish ko'nikmalarini chuqurlashtirishda va tengdoshlar o'rtasidagi bilim almashinuvini faollashtirishda samarali ekanligi isbotlangan [1; 2]. Shu bilan birga, ushbu modelning kognitiv rivojlanishga ta'sirini Bloom taksonomiyasi, metakognitsiya va konstruktivistik ta'lim nazariyalari asosida kompleks tarzda tahlil qilishga bag'ishlangan ilmiy maqolalar mahalliy pedagogika tadqiqotlarida hali yetarli darajada uchramaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi - "Kitobxonlar klubi" modelining ingliz tili darsdan tashqari mashg'ulotlarida o'quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishdagi mexanizmlarini ilmiy-nazariy asosda tahlil qilish va uning pedagogik samaradorligini ko'rsatib berishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, "Kitobxonlar klubi" modeli ilk marta Bloom taksonomiyasining barcha olti bosqichi, Paul va Elder tanqidiy fikrlash modeli, Vygotskiyning ZPD nazariyasi, scaffolding tushunchasi va kognitiv yuk nazariyasini qamrab olgan integrativ doirada o'rganilmoqda. Shuningdek, ushbu modelni O'zbekiston ingliz tili ta'limining darsdan tashqari jarayoniga tatbiq etishning metodologik asoslari taklif qilinmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kitobxonlar klubi muhitida kognitiv rivojlanishni tushuntirishda eng ko'p qo'llaniladigan asos Bloom taksonomiyasidir. Bloom va uning hamkasblari tomonidan 1956-yilda ishlab chiqilgan dastlabki model keyinchalik Anderson va Krathwohl tomonidan qayta ko'rib chiqilib, bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash va yaratish bosqichlari sifatida yangilangan [3]. Ushbu model o'quv jarayonini chuqur loyihalash va baholash uchun keng qo'llaniladigan pedagogik mezon sifatida tan olingan.

Kitob klublari va adabiy muhokamalar sohasida Daniels guruh muhokamasi formatida o'quvchilarning matn tafsilotlarini ancha uzoqroq muddat eslab qolishini isbotlagan [4]. Raphael va McMahan esa "Book Club" dasturini baholashda ishtirokchilarning o'qib tushunish, tanqidiy fikrlash va yozma muloqot ko'nikmalarida nazorat guruhiga qaraganda sezilarli yutuqlarni qayd etgan [2].

Gambrell muhokamaga asoslangan o'qish faoliyati o'quvchilarda matn mazmunini yanada chuqur anglash imkonini yaratishini ko'rsatib bergan [4]. Harvey va Goudvis esa matnni real hayot bilan bog'lash texnikasi (text-to-self, text-to-world) va sintezning samarali o'qishning eng yuqori ko'rsatkichi ekanligini ta'kidlagan [5].

Metakognitsiya nazariyasi nuqtai nazaridan Flavell o'z kognitiv jarayonlari haqidagi bilim va ularni boshqarish qobiliyati tushunchalarini birinchilardan bo'lib tizimli o'rganib chiqqan [6]. Konstruktivistik asoslar borasida Vygotskiyning ZPD nazariyasi "Kitobxonlar klubi" pedagogikasining eng muhim nazariy tayanchlaridan biri hisoblanadi [7]. "Scaffolding" tushunchasi esa Wood, Bruner va Ross tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, vaqtinchalik qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalar orqali o'rganishni ta'minlashni ifodalaydi [8]. Kognitiv yuk nazariyasini asoslab bergan Sweller ishchi xotirani optimal boshqarishning o'rganish samaradorligiga ta'sirini ko'rsatib bergan [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda aralash metodologik yondashuv (mixed methods design) qo'llanilgan. Miqdoriy metodlar doirasida tadqiqot oldi va tadqiqotdan keyingi (pre-test/post-test) dizayn asosida kvaziekperimental tadqiqot o'tkazildi. Sinov va nazorat guruhlari ishtirokchilari - 7-9-sinf o'quvchilari - uchun Bloom taksonomiyasiga asoslangan kognitiv ko'nikmalar testi loyihalashtirildi. Taksonomiyaning har bir bosqichiga mos keladigan savol turlari qo'llandi: eslab qolish uchun faktik savollar, tushunish uchun izohlash topshiriqlari, qo'llash uchun hayotiy vaziyat tahlili, tahlil qilish uchun matn tuzilishini ajratish vazifalari, baholash uchun muallif pozitsiyasini asoslash va yaratish uchun alternativ yakun yozish topshiriqlari kiritildi.

Sifat tadqiqot metodlari sifatida portfolio va o'qish kundaliklari, shuningdek, rubrikalar asosidagi baholash tizimi qo'llanildi. Portfolio orqali ishtirokchilarning KK faoliyati davomida yaratgan barcha yozma ishlari - muhokama savollari, lug'atlar, refleksiya yozuvlari, ijodiy matnlar va baholash jadvallari - to'plandi va tahlil qilindi. O'qish kundaligida ishtirokchilar har bir uchrashuvdan so'ng o'qilgan asar, savollar, manzur parchalar va qarashlardagi o'zgarishlarni qayd etdilar. Paul va Elder modelining sakkiz elementi hamda Bloom taksonomiyasining olti bosqichiga asoslangan maxsus rubrikalar ishlab chiqilib, tanqidiy fikrlash sifatini miqdoriy ifodalashda foydalanildi.

Tadqiqotning umumiy tuzilmasi aralash usullar dizaynining qiyosiy kvaziekperimental variantiga mos keladi: sinov guruhida Kitobxonlar klubi dasturi joriy etildi, nazorat guruhida esa an'anaviy darsdan tashqari

o'qish faoliyati davom ettirildi. Tadqiqot ikki chorak davomida olib borildi va ikkala guruhda bir xil diagnostik testlar parallel ravishda o'tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari "Kitobxonlar klubi" muhokamalarining Bloom taksonomiyasining barcha olti bosqichini tabiiy tarzda faollashtirishini tasdiqlamoqda.

Birinchi bosqich - bilish - da ishtirokchilar voqealar ketma-ketligi, personajlar ismi va asosiy g'oyalarni eslab qoldi; muhokama jarayoni passiv o'qishga qaraganda xotirani mustahkamlashning samaraliroq shaklini ta'minladi ^[1].

Ikkinchi bosqich - tushunish - da turli pozitsiyadan so'zlashish jarayonida ishtirokchilar personaj motivlari va mavzu mazmunini chuqurroq angladi; bu empatik qobiliyatning ham rivojlanishiga xizmat qildi ^[4].

Qo'llash bosqichida ishtirokchilar "Bu asardagi muammo bizning kundalik hayotimizda qanday namoyon bo'ladi?" kabi savollar orqali asar g'oyalarni real hayotga tatbiq etdi. Tahlil bosqichida syujet burilishlari, konfliktlar va stilistik vositalar alohida ko'rib chiqildi. Palincsar va Brown tadqiqotida ushbu strategiyalardan 15-20 kun foydalanilgandan so'ng o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasi 30 % dan 70 % gacha oshgani qayd etilgan ^[10]. Baholash bosqichida ishtirokchilar muallif pozitsiyasini tanqidiy mezonlar asosida ko'rib chiqdi. Yaratish bosqichida esa alternativ yakun, ijodiy yozuv va yangi yechim taklif qilish topshiriqlari "Kitobxonlar klubi"ning eng oliy kognitiv mahsuloti sifatida namoyon bo'ldi.

"Kitobxonlar klubi" faoliyati metakognitsiyaning rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo'shdi. Ishtirokchilar o'qish maqsadiga qarab chuqur o'qish, tez ko'rib chiqish, ma'lum ma'lumot izlash va qayta o'qish kabi turli strategiyalardan ongli foydalanishni o'rgandi. Muhokama jarayonida noto'g'ri talqinlar tengdoshlar tomonidan matniy dalillar asosida tuzatildi; bu Flavell ta'kidlagan metakognitiv nazoratning amaliy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ldi ^[6]. Palincsar va Brown aniqlashicha, tengdoshlar tomonidan amalga oshiriladigan tuzatish o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan tuzatishdan ko'ra uzoqroq saqlanuvchi o'rganishni ta'minlaydi ^[10].

ZPD nazariyasi nuqtai nazaridan klubdagi tajribaliroq o'quvchilar kamroq tajribali ishtirokchilarning tushunishini oshirishda "bilimli hamkor" vazifasini o'taydi. Daniels kuzatishlariga ko'ra, guruh muhokamalarida ishtirokchilar yakka tartibdagi o'qishga qaraganda ancha murakkab matn qatlamlarini anglashga muvaffaq bo'ldi ^[1]. Scaffolding ikki manbadan - o'qituvchi yoki fasilitatorning tuzilmali savol va yo'naltirishlari hamda a'zolar o'rtasidagi o'zaro qo'llab-quvvatlashdan - kelib chiqdi ^[8].

Kognitiv yuk nazariyasi jihatidan guruh muhokamasi ichki yukni boshqarishni osonlashtirgani aniqlandi: murakkab matnning turli qismlari turli ishtirokchilar tomonidan izohlanib, umumiy tushunishni chuqurlashtirdi. Bransford va boshqalar ta'kidlaganidek, ijtimoiy o'rganish muhiti individual kognitiv yukni kamaytiradi va guruhning umumiy kognitiv salohiyatini oshiradi ^[11].

1-jadval: Tajriba-sinov va nazorat guruhlari ko'rsatkichlarining taqqoslanishi

Ko'rsatkich	Tajriba-sinov guruhi (oldin)	Tajriba-sinov guruhi (keyin)	Nazorat guruhi (keyin)
O'qib tushunish ko'nikmasi (%)	48	74	52
Tanqidiy fikrlash darajasi (rubrika, 1–5)	2.1	3.9	2.4
Metakognitiv faollik (portfolio tahlili)	Past	Yuqori	O'rta
Leksik boylik o'sishi (%)	12	31	14
Ijodiy yozuv sifati (rubrika, 1–5)	2.0	3.7	2.2

Ko'rsatkichlar tadqiqotning ikki chorak kuzatish davrida to'plangan ma'lumotlar asosida hisoblab chiqilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Kitobxonlar klubi dasturini amalga oshirishdan oldin va so'ng o'tkazilgan o'lchovlar o'rtasida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli farq mavjud. Ayniqsa, o'qib tushunish ko'nikmasining 48 % dan 74 % ga o'sishi va tanqidiy fikrlash darajasining 2,1 balldan 3,9 ballga yetishi e'tiborga molik. Nazorat guruhi bilan taqqoslaganda, bu farq yanada ravshan namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, "Kitobxonlar klubi" modeli ingliz tili darsidan tashqari mashg'ulotlarida Bloom taksonomiyasining olti bosqichini bir vaqtning o'zida faollashtirishga qodir pedagogik muhit yaratadi. An'anaviy darsdan tashqari o'qish faoliyatida odatda bilish va tushunish bosqichlari bilan chegaralangan holda, "Kitobxonlar klubi" muhokama formati tahlil, baholash va yaratish bosqichlariga tizimli kirib borishni ta'minlaydi. Bu natija Harvey va Goudvis ^[5] hamda Daniels ^[1] kuzatishlari bilan to'liq mos keladi.



Krashening keng qamrovli o'qish nazariyasiga ko'ra ^[12], erkin o'qish amaliyoti o'quvchilarda leksik boyluk, grammatik sezgirlik va umumiy kognitiv egiluvchanlikni oshiradi. Kitobxonlar klubi modeli ushbu nazariyani ijtimoiy o'rganish bilan uyg'unlashtiradi - bu esa alohida o'qishdan farqli ravishda o'quvchilarning motivatsiyasini va saqlanib qoluvchi o'rganish chuqurligini oshiradi.

Vygotskiyning ZPD nazariyasining Kitobxonlar klubi amaliyotida namoyon bo'lishi alohida e'tiborga loyiq ^[7]. Tajribaliroq ishtirokchilar "bilimli hamkor" vazifasini o'tab, matnning murakkab qatlamlarini boshqalarga ochib beradi; bu esa guruh dinamikasini quyi kognitiv darajalarda turib qolishga emas, balki doimo yuqori bosqichlarga intilishga yo'naltiradi. Ushbu mexanizm Vygotskiy nazariyasining ingliz tili darsidan tashqari kontekstdagi amaliy jihatlarni yanada ravshanlashtirib beradi.

Scaffolding jihatidan "Kitobxonlar klubi" muhitida o'qituvchi va tengdoshlar tomonidan amalga oshiriladigan ikki tomonlama qo'llab-quvvatlash o'quvchining ZPDsining yuqori chegarasiga erisha olishiga imkon beradi ^[8]. Bu natija pedagogik amaliyotda o'qituvchining fasilitator rolini kuchaytirishning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot "Kitobxonlar klubi" modelining ingliz tili darsidan tashqari mashg'ulotlarida o'quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish uchun samarali pedagogik vosita ekanligini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. Bloom taksonomiyasining olti bosqichi, metakognitsiya, ZPD, scaffolding va kognitiv yuk nazariyalari nuqtai nazaridan o'tkazilgan tahlil "Kitobxonlar klubi" formatining kognitiv ta'sirining ko'p qatlamli va integrativ xususiyatini ko'rsatdi.

Miqdoriy ko'rsatkichlar shuni tasdiqladiki, "Kitobxonlar klubi" dasturida ishtirok etgan o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasi, tanqidiy fikrlash darajasi, metakognitiv faolligi, leksik boyligi va ijodiy yozuv sifati nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yaxshilandi. Bu natijalar "Kitobxonlar klubi" modelini O'zbekiston ingliz tili ta'limining darsdan tashqari komponentiga joriy etishning pedagogik asoslarini mustahkamlaydi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun "Kitobxonlar klubi" modelini turli yosh guruhlari, turli til darajalari va turli min-taqaviy kontekstlarda o'rganish tavsiya etiladi. Shuningdek, "Kitobxonlar klubi" modelini raqamli ta'lim muhitiga (virtual kitobxonlar klubi) moslashtirishga oid izlanishlar ham dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Daniels, H. Literature circles: Voice and choice in book clubs and reading groups. 2nd ed. - Portland, ME: Stenhouse Publishers, 2002. - 312 p.
2. Raphael, T.E., McMahon, S.I. Book club: An alternative framework for reading instruction // The Reading Teacher. - 1994. - Vol. 48, No. 2. - P. 102-116.
3. Anderson, L.W., Krathwohl, D.R. A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. - New York: Longman, 2001. - 352 p.
4. Gambrell, L.B. Creating classroom cultures that foster reading motivation // The Reading Teacher. - 1996. - Vol. 50, No. 1. - P. 14-25.
5. Harvey, S., Goudvis, A. Strategies that work: Teaching comprehension for understanding and engagement. 2nd ed. - Portland, ME: Stenhouse Publishers, 2007. - 320 p.
6. Flavell, J.H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry // American Psychologist. - 1979. - Vol. 34, No. 10. - P. 906-911. DOI: <https://doi.org/10.1037/0003-066X.34.10.906>
7. Vygotsky, L.S. Mind in society: The development of higher psychological processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 159 p.
8. Wood, D., Bruner, J.S., Ross, G. The role of tutoring in problem solving // Journal of Child Psychology and Psychiatry. - 1976. - Vol. 17, No. 2. - P. 89-100. DOI: <https://doi.org/10.1111/j.1469-7610.1976.tb00381.x>
9. Sweller, J. Cognitive load during problem solving: Effects on learning // Cognitive Science. - 1988. - Vol. 12, No. 2. - P. 257-285. DOI: https://doi.org/10.1207/s15516709cog1202_4
10. Palincsar, A.S., Brown, A.L. Reciprocal teaching of comprehension-fostering and comprehension-monitoring activities // Cognition and Instruction. - 1984. - Vol. 1, No. 2. - P. 117-175. DOI: https://doi.org/10.1207/s1532690xci0102_1
11. Bransford, J.D., Brown, A.L., Cocking, R.R. (Eds.). How people learn: Brain, mind, experience, and school. Expanded ed. - Washington, DC: National Academy Press, 2000. - 374 p.
12. Krashen, S.D. The power of reading: Insights from the research. 2nd ed. - Westport, CT: Libraries Unlimited, 2004. - 181 p.
13. Paul, R., Elder, L. Critical thinking: Tools for taking charge of your learning and your life. 2nd ed. - Upper Saddle River, NJ: Pearson Prentice Hall, 2006. - 302 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.